LISONIY INTERFERENTIV TA’SIRLAR HAQIDA

A. Rahmonqulov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)
G. Azimova, ingliz tili o‘qituvchisi (Tojikiston)
A. Amirova, nemis tili mutaxassisi (Tojikiston)

Annotatsiya.Ushbu maqolada sotsiolingvistik masalalardan biri bo‘lgan lingvistik interferensiya hodisasi mohiyati, uning ijobiy va salbiy ko‘rinishlari haqida so‘z boradi. Interferentiv ta’sirlar, interferentiv xatolarning qardosh va qardosh bo‘lmagan tillararo amal qilishi bir necha gap misollar orqali talqin etilgan.
Kalit so‘zlar: interferensiya, interferentiv xatolar, sotsiolingvistika, bilingvizm, ikkitalillik, lingvomadaniy model, madaniy kod.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность феномена языковой интерференции, одной из социолингвистических проблем, её позитивные и негативные проявления. Эффекты интерференции, функционирование интерференционных ошибок между родными и неродными языками объясняются на нескольких примерах.
Ключевые слова: интерференция, интерференционные ошибки, социолингвистика, билингвизм, лингвокультурная модель, культурный код.

Abstract. This article examines the essence of the phenomenon of language interference, a sociolinguistic problem, and its positive and negative manifestations. The effects of interference and the functioning of interference errors between native and non-native languages are explained using several examples.
Keywords: interference, interference errors, sociolinguistics, bilingualism, linguacultural model, cultural code

Tilshunoslikda interferensiya sotsiolingvistik yo‘nalishga oid muhim tushunchalardan biri sifatida qaraladi. U. Vaynrayx interferensiyani bilingv nutqida bir necha tillarni bilish natijasida vujudga keladigan, til me’yorlaridan ixtiyoriy ravishda chekinish holati sifatida ta’riflaydi. M.T. Zokirov esa uni “ona tilida mustahkamlangan til ko‘nikmalarining o‘rganilayotgan ikkinchi tilga beixtiyor ravishda ko‘chirilishi natijasi” deb izohlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda interferensiya psixologiya fani doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, boshqalarida uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan qarashga ko‘ra, interferensiya — bir tilga xos xususiyatlarning boshqa til tizimi yoki uning muayyan hodisalariga g‘ayriixtiyoriy ravishda ko‘chishidir.

Interferensiya turlari: Tilshunoslikda interferensiya tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladigan izomorf hodisalardan biri hisoblanadi. Professor A. Berdialiyev interferensiyaning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Fonetik-fonologik interferensiya
2. Leksik-semantik interferensiya
3. Morfologik interferensiya
4. Sintaktik interferensiya

Olim ta’kidlaganidek, har bir tilda fonemalarning adabiy nutqqa xos rasmiy intonemasi mavjud bo‘lib, u urg‘u, melodiya, ritm, intensivlik, temp va tembr kabi prosodik elementlarni o‘z

ichiga oladi. Interferensiya jarayoni o‘zga tilda yuz berayotgan o‘zgarish xarakteriga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- salbiy interferensiya,
- ijobiy interferensiya.

Salbiy interferensiya va interferentiv xatolar. Salbiy interferensiya bir til vakilining ikkinchi til me’yorlarini yetarli darajada bilmasligi natijasida yuzaga keladi. Bu holatda ikkinchi tilning muayyan sathiga xos me’yorlarga amal qilinmaydi va nutqda g‘ayriixtiyoriy g‘alizlik paydo bo‘ladi. Bunday holatni taniqli tilshunos N. Mahmudov “interferentiv xato” deb atagan. Mutaxassislarning yakdil fikriga ko‘ra, inson faqat ona tilini to‘liq va mukammal egallaydi. Chunki ona tili bolaga tabiiy muhitda, milliy tafakkur va madaniy kodlar bilan birga o‘zlashtiriladi. Boshqa til esa, odatda, aynan shu ona tili orqali o‘rganiladi. Shu sababli ikkinchi tilni o‘zlashtirishning dastlabki bosqichlarida interferentiv xatolar tez-tez uchraydi.

O‘zbek–tojik–rus tillari asosida anglo-german tillarini o‘rganishdagi interferensiya:

Quyida o‘zbek, tojik va rus tillari egalari tomonidan ingliz va nemis tillarini o‘rganish jarayonida uchraydigan ayrim interferentiv xatolar tahlil qilinadi:

1. Men boshimni yuvaman – man saramro meshyam – ya moyu golovu jumlasini nemis tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda quyidagicha ko‘rinish bo‘lishi mumkin:

✗ *Ich wasche meinen Kopf.*

Biroq nemis va ingliz tillarida “bosh” emas, “soch” yuviladi:

✔ **IchwaschemirdieHaare.** Inglizchada:

✔ **I wash my hair.**

2. “Mening oyoq barmoqlarim og‘riyapti”.

Ruscha: У меня болят пальцы на ногах

Tojikcha: Angushtoni poyam dard mekunand. Shunga monand tarzda nemis tiliga ham so‘zma-so‘z o‘girib::

✗ *Meine Finger auf den Füßen tun weh, - d*eyilsa xatoga yo‘l qo‘yiladi. Sababi nemis tilida *Finger* faqat qo‘l barmoqlariga nisbatan ishlatiladi. Oyoq barmoqlari esa *Zehen* Deb ataladi: Binobarin to‘g‘ri variant quyidagicha bo‘ladi::

✔ **Meine Zehen tun weh.** Inglizchada: ✔ **My toes hurt.**

3. “Qaytim kerak emas**”**

Ruscha: Сдачи не нужно // Tojikcha: Майдааш лозим нест //

Nemischada: *Kein Wechselgeld, bitte* – demaklik xato bo‘ladi..

Nemis tilida bu vaziyatda quyidagi qoliplar ishlatiladi:

✔**Stimmt so. // Passtso.**

Inglizchada: ✔ Keep the change.

4.“Hech gap emas”. Ruscha: Ничего страшного.

Tojikcha: Ҳеч гап нест.

Nemis tiliga bu iborani so‘zma-so‘z tarjimasi orqali tadbiq etib bo‘lmaydi, ular bunday qo‘llashmaydi.:

✗ *Nicht schrecklich!*

Nemis tilida bunday holatda muloyim ifodalar qo‘llaniladi.: **Macht nichts. / Kein Problem. / Alles gut.**

Inglizchada:✔ No problem. / It’s okay./

5. “Nima bo’ldi?”, “Что случилос?” “Чи шуд?” Oddiy holatlarda nemis tilida: ✔ **Was ist los? / Was gibt’s?**

Dramatik vaziyatlarda esa: ✔ **Was ist passiert?** Ingliz tilida: ✔ **What’s going on? / What happened?**

6. “Bu mening do’stim”, “Ин кас дӯсти ман”, “Это мой друг”

✕ *Das ist mein Freund.* Bu ifoda nemis tilida ishqiy munosabatni anglatadi. Do‘stlik munosabati uchun: ✔ **Das ist ein Freund von mir.**

Inlizchada: ✔ This is a friend of mine.

7. “Menga farqi yo’q”, “Ба ман фарқаш нест”, “Мне все равно”. So‘zma-so‘z tarjimasini ishlatsak salbiy ifoda bo‘ladi.✕ *Das ist mir egal* (qo’pol ma’no ifodalaydi) **Ijobiy ma’noda: ✔ Das ist mir beides recht.✔Ich habe keine Präferenz.**

Inglizchada:✔ You can decide.

8. Frazeologik interferensiya.

Они живут душа в душу, онҳо якдила ҳаст зист, улар якдил, аҳил ва иноқ яшашади.✕ *Sie leben Seele in Seele.*✔ **Sie leben in perfekter Harmonie. ✔ Sie sind ein Herz und eine Seele.**

Inglizchada: ✔ They live in perfect harmony.

Xulosa. qilib aytish mumkinki, har bir til va uning egalari dunyoni o‘ziga xos milliy tafakkur, madaniy tajriba va lingvomadaniy modelllar orqali idrok qiladi. Shu sababli chet tilni o‘rganish jarayonida faqat grammatik va leksik qoidalarni emas, balki shu til egalariga xos urf-odatlar, qadriyatlar, mentalitet va kommunikativ xulqni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu masala til o‘rganuvchilar, tarjimonlar, til o‘qituvchilari, shuningdek, madaniyatlar muloqoti bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. Алиев А.Ю. Ўзлаштирилган сўзлар // Тилшунослик масалалари. ТошДУ илмий ишлар тўплами, 608 – Тошкент, 2007.

2. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. Хужанд - 2015.

3. Бердиалиев А., Хидиров Р. Ўзбек ва тожик лисоний алоқалари. Душанбе: “Ирфон”, 2011.

4. Раҳмонбердиев К. Ўзбек тил контактлари. Тошкент : 1989.

5. Бердиалиев А.Зокиров М.Ўзбек ва тожик лисоний алоқалари.Фарғона, 2017.

6. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. НДА . Тошкент, 2007.

7. Раҳмонбердиев К. Ўзбек тил контактлари. Тошкент : 1989.